TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUL / 7-SON, II - QISM

Google Scholar
OpenAIRE
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.*
*II-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI....12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi
Djurayeva Rano Abdullayevna
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI....24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI....28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna
Atoyev Navro'zbek Rinatovich
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA....35
Shikirov Feruz Boxodirovich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSIYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI....39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIKLARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD–IXTISOSLASHUV–KASB–ISH BERUVCHI–DAROMAD" MODELI....49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI....55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI....62
Shokirova Dildora Shoyim qizi
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI....66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR....73
Yusupov Ruslan Muxtarovich
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY....81
An Kwangmin
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI....87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS....93
Karimov Mustafo Aminboevich
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI....97
Gafurova Dilshoda Farxotovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS .......... 102
Tolqin Imomqulov
Ulugbek Turaqulov
INNOVATSION MEXANIZMLAR ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH .......... 105
Yoqubjon Toxirov
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI .......... 109
Muxtarov Botir Abdusattarovich
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ .......... 114
Муниса Турдибаева
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEXANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI .......... 124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .......... 133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI .......... 139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .......... 143
Dilshodjon Khikmatov
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ .......... 151
Тожихонов Жавохир Алимджанович
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .......... 157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEXANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI .......... 164
Yusupova Nigina Djurayevna

# HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEXANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI

**Yusupova Nigina Djurayevna**
**Osiyo xalqaro universiteti**
**"Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi**
**ORCID: 0009-0008-9425-2116**
**Email: Yusupova_nigina@oxu.uz**

**Annotatsiya:** Maqolada hududiy sanoat rivoji samaradorligini oshirishga qaratilgan vositalar institutsional va iqtisodiy guruhlarga tizimlashtirilgan. Institutsional vositalar (indikativ rejalashtirish, tartibga solish sifati, kadrlar instituti, ilm-fan koʻprigi, muloqot institutlari) va iqtisodiy vositalar (modernizatsiya jamgʻarmasi, tezlashtirilgan amortizatsiya, eksport oldi moliyalashtirish, hududiy tabaqalashtirilgan imtiyozlar) hududlarning tipiga qarab yoʻnaltirilgan. Baholash tizimining mikrodarajadagi oʻzagi sifatida korxona tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini kompleks oʻlchashning «SANOAT» (6S) uslubiyoti ishlab chiqilgan. Uslubiyot mexanizmni oltita blok-mezon kesimida baholaydi, chiziqli min-maks normallashtirish va ierarxiyalarni tahlil qilish usuliga (AHP) tayanadi hamda korxonalarni A/B/C/D guruhlarga tabaqalashtirib, har biri uchun boshqaruv qarorini belgilaydi.

**Kalit soʻzlar:** hududiy sanoat, institutsional vositalar, iqtisodiy vositalar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, integral indeks, SANOAT uslubiyoti, ierarxiyalarni tahlil qilish, korxonalarni tasniflash, konvergensiya.

**Аннотация:** В статье инструменты повышения эффективности регионального промышленного развития систематизированы на институциональные и экономические группы. Институциональные инструменты (индикативное планирование, качество регулирования, институт кадров, мост «наука–производство», институты диалога) и экономические инструменты (фонд модернизации, ускоренная амортизация, предэкспортное финансирование, территориально дифференцированные льготы) ориентированы в зависимости от типа территории. В качестве микроуровневого ядра системы оценки разработана методика «SANOAT» (6S) комплексного измерения эффективности организационно-экономического механизма предприятия. Методика оценивает механизм по шести блокам-критериям, опирается на линейную min-max нормализацию и метод анализа иерархий (AHP), классифицирует предприятия по группам A/B/C/D и закрепляет за каждой управленческое решение.

**Ключевые слова:** региональная промышленность, институциональные инструменты, экономические инструменты, организационно-экономический механизм, интегральный индекс, методика SANOAT, метод анализа иерархий, классификация предприятий, конвергенция.

**Abstract:** The article systematises the instruments for improving the efficiency of regional industrial development into institutional and economic groups. Institutional instruments (indicative planning, regulatory quality, the personnel institute, the science–production bridge and dialogue institutions) and economic instruments (a modernisation fund, accelerated depreciation, pre-export financing and territorially differentiated incentives) are targeted according to the type of territory. As the micro-level core of the evaluation system, a "SANOAT" (6S) methodology for the complex measurement of an enterprise's organisational-economic mechanism is developed. The methodology assesses the mechanism across six block-criteria, relies on linear min-max normalisation and the Analytic Hierarchy Process (AHP), and classifies enterprises into A/B/C/D groups, each assigned a corresponding management decision.

**Keywords:** regional industry, institutional instruments, economic instruments, organisational-economic mechanism, integral index, SANOAT methodology, Analytic Hierarchy Process, enterprise classification, convergence.

## KIRISH

Bugungi kunda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ularning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va raqobatbardoshligini oshirishda sanoat tarmog'i muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat korxonalari hududiy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda mahalliy xomashyo resurslarini yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarga aylantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy sharoitda sanoat rivojlanishini faqat ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali baholash yetarli emas. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi, texnologik yangilanish darajasi, innovatsion faolligi, boshqaruv sifati, resurslardan foydalanish samaradorligi va hududiy kooperatsiya aloqalari ham kompleks ravishda hisobga olinishi zarur.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarishlarni kengaytirish va xususiy sektor faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi hududiy sanoat rivojini boshqarishning zamonaviy institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi [1] [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Institutsional vositalar «o'yin qoidalari»ni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi. Birinchi vosita — indikativ rejalashtirish tizimi: hududiy sanoat dasturi maqsadli indikatorlarining stsenariy prognozlar bilan ilmiy bog'lanishi, indikatorlarning idoralar va tumanlar bo'yicha qismlarga ajratilishi, ijro monitoringining integral indeks bilan bog'lanishi. Ikkinchi vosita — tartibga solish sifatini oshirish: yangi talablar joriy etilishidan avval tadbirkorlikka ta'sirini baholash (regulyativ ta'sir tahlili), eskirgan talablarni muntazam inventarizatsiya qilish, «bir yangi talab — ikki eski talab bekor» qoidasini sinovdan o'tkazish. [1] [2] [3] [5] [17]

Uchinchi vosita — kadrlar instituti: viloyat sanoati uchun kasblar va malakalar prognozi (bandlik stsenariylari asosida), ta'lim buyurtmasining korxonalar ehtiyojiga bog'lanishi, dual ta'lim ulushini kengaytirish, muhandis-texnik yo'nalishlarga maqsadli grantlar. To'rtinchi vosita — ilm-fan va ishlab chiqarish ko'prigi: universitetlar qoshida amaliy muammolar bo'yicha buyurtma tadqiqotlar tizimi, texnologik audit xizmati, innovatsion loyihalar uchun sinov maydonchalari. Beshinchi vosita — muloqot institutlari: sanoat kengashi, klaster qo'mitalari, tadbirkorlar bilan muntazam «ochiq eshiklar» formatlari, jamoatchilik monitoringi. Institutsional vositalarning umumiy xususiyati — ular budjetga nisbatan arzon, lekin ijro intizomi va izchillikka talabchan; shu bois ularning har biri uchun mas'ul tuzilma va o'lchanadigan natija indikatori belgilanishi shart (1-jadval). [6] [7] [8] [10] [12]

1-jadval
Institutsional vositalar tizimi[1]

| Instrument | Mazmuni | Mas'ul tuzilma | Natija indikatori |
|---|---|---|---|
| Indikativ rejalashtirish | Dastur indikatorlarini prognozlar bilan bog'lash, qismlarga ajratish | Iqtisodiyot boshqarmasi | Indikatorlar tizimining yillik ijro darajasi |
| Tartibga solish sifati | Regulyativ ta'sir tahlili, eskirgan talablarni bekor qilish | Hokimlik, Adliya organlari | Ma'muriy yuk indeksining pasayishi |
| Kadrlar instituti | Malakalar prognozi, dual ta'lim, buyurtma asosidagi tayyorlash | Ta'lim boshqarmalari, korxonalar | Dual ta'lim ulushi, ishga joylashish darajasi |
| Ilm-fan ko'prigi | Buyurtma tadqiqotlar, texnologik audit, sinov maydonchalari | Universitetlar, kengash | Joriy etilgan ishlanmalar soni |
| Muloqot institutlari | Sanoat kengashi, klaster qo'mitalari, jamoatchilik monitoringi | Hokimlik, birlashmalar | Qarorlar ijrosi, qamrov |

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy vositalar guruhi resurslarni qayta taqsimlash va rag'batlantirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Asosiy iqtisodiy vositalar quyidagilardan iborat: modernizatsiya jamg'armasi va natijaga bog'langan imtiyozli moliyalashtirish (fondlar eskirishi muammosiga); kafolat fondi va mikromoliyalashtirish qamrovini kengaytirish

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

(kichik subyektlar beqarorligiga); tezlashtirilgan amortizatsiya va texnologik uskunalar uchun bojxona-soliq imtiyozlari (yangilanishni rag'batlantirishga); eksport oldi moliyalashtirish, eksport kreditlarini sug'urtalash va «eksportchilar zinapoyasi» subsidiyalari (tashqi bozorlarga chiqishga); energiya samaradorligi loyihalarini imtiyozli kreditlash va «yashil» tariflar (resurs tejamkorligiga); hududiy tabaqalashtirilgan imtiyozlar koeffitsiyentlari (konvergensiyani qo'llab-quvvatlashga). [2] [4] [9]

«Yoqilg'i-energetika yadrosi» (Qorovulbozor) uchun ustuvor vositalar — qiymat zanjirini kengaytiruvchi loyihalarni (neft-kimyo, polimerlar) DXSh va yirik investitsiyalar orqali joylashtirish, qo'shni tumanlar mehnat resurslarini jalb etuvchi transport-logistika yechimlari. «Shahar markazlari» (Buxoro, Kogon shaharlari) uchun — mehnat sig'imli va kreativ ishlab chiqarishlar, innovatsion infratuzilma, ko'p qavatli sanoat binolari formati. «Agroindustrial tumanlar» uchun — qayta ishlash chuqurligini oshiruvchi paketlar, sovutish-saqlash infratuzilmasi, kooperatsiya qoidalari. «Yangi industrial nuqtalar» uchun — infratuzilmani ilgarilab tayyorlash, imtiyozlarning oshirilgan koeffitsiyentlari, kadrlar bo'yicha maxsus dasturlar. Bunday tabaqalashuv konvergensiya jarayonini tezlashtirishning amaliy vositasidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash tizimining mikrodarajadagi o'zagi sifatida korxona tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini kompleks o'lchash uslubiyoti ishlab chiqildi. Uning zarurati mavjud yondashuvlarning uchta cheklovidan kelib chiqadi. An'anaviy moliyaviy tahlil (rentabellik, likvidlik, aylanuvchanlik koeffitsiyentlari) korxonaning moliyaviy natijasini qayd etadi, biroq shu natijani ishlab chiqargan mexanizmning o'zini — boshqaruv sifatini, kooperatsiya darajasini, innovatsion muhitni — o'lchamaydi. Xorijiy kompleks modellar (muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi, McKinsey 7S, EFQM mukammallik modeli) rivojlangan bozor institutlariga va boy korporativ statistikaga tayanadi, mintaqaviy sanoatimiz sharoitida esa ma'lumotlar bazasining cheklanganligi, davlat dasturlarining sezilarli ta'siri va hududiy kooperatsiya omili kabi xususiyatlar ularni bevosita qo'llashni qiyinlashtiradi. Milliy amaliyotda tarqalgan resurs yondashuvi (jumladan, «7M» tipidagi modellar) resurslarning mavjudligini baholaydi, ammo ularni harakatga keltiruvchi mexanizmning ishlashini alohida o'lchamaydi. [10] [13] [14] [15] [18]

Taklif etilayotgan uslubiyot mexanizmni oltita blok-mezon kesimida baholaydi; bloklarning nomlanishi «SANOAT» so'zining harflariga mos keltirilgan, ularning har biri bo'yicha hisoblanadigan yig'ma subindekslar esa modelning «6S» qismini tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval
«SANOAT» (6S) uslubiyotining blok-mezonlari va vaznlari[2]

| Blok | Nomi | Mazmuni | Vazni |
|---|---|---|---|
| S | Strategik boshqaruv | Strategiyaning mavjudligi va ijro darajasi, korporativ boshqaruv sifati, kadrlar siyosati | 0,15 |
| A | Aktivlar va moliyaviy barqarorlik | Moliyaviy holat, aktivlardan foydalanish samaradorligi, investitsion jozibadorlik | 0,20 |
| N | Novatsion faollik | Yangi mahsulot, tadqiqot va texnologik yangilash xarajatlari, raqamlashtirish darajasi | 0,15 |
| O | Operatsion samaradorlik | Mehnat unumdorligi, quvvatlardan foydalanish, resurs va energiya tejamkorligi | 0,20 |
| A | Aloqadorlik (bozor va kooperatsiya) | Bozordagi mavqe, eksport, mahalliy kooperatsiya zanjirlaridagi ishtirok | 0,15 |
| T | Texnika-texnologik daraja | Asosiy fondlarning holati va yangilanishi, sifat sertifikatlari, uskunalar yoshi | 0,15 |

Uslubiyotning hisoblash vositalari besh qadamdan iborat. Birinchi qadamda har bir blok bo'yicha 4–5 tadan, jami 26 ta xususiy ko'rsatkich shakllantiriladi. Strategik boshqaruv bloki tasdiqlangan rivojlanish strategiyasining mavjudligi va ijro darajasini, rahbar kadrlarning malaka oshirish qamrovini, KPI tizimining joriy etilganligini, kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyentini hamda boshqaruv xarajatlarining sof tushumdagi ulushini qamrab oladi (oxirgi ikki ko'rsatkich destimulyator hisoblanadi). Aktivlar va moliyaviy barqarorlik bloki sotuv va aktivlar rentabelligini, joriy likvidlik hamda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlarini, asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atini

2 Manba: muallif ishlanmasi.

o'z ichiga oladi. Novatsion faollik bloki so'nggi uch yilda o'zlashtirilgan mahsulotning ishlab chiqarish hajmidagi ulushini, tadqiqot va texnologik yangilash xarajatlarining tushumdagi ulushini, raqamlashtirish darajasini va intellektual mulk obyektlari sonini o'lchaydi. Operatsion samaradorlik bloki bir xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligini, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini, mahsulot birligiga energiya sarfini va yaroqsiz mahsulot ulushini hisobga oladi. Aloqadorlik bloki eksportning sotuv hajmidagi ulushini, mahalliy xomashyo va butlovchi qismlar ulushini, hududiy kooperatsiya shartnomalari hajmini hamda takroriy buyurtmalar ulushini baholaydi. Texnika-texnologik daraja bloki asosiy fondlarning eskirish va yangilanish koeffitsiyentlarini, xalqaro sifat sertifikatlarining mavjudligini va nisbatan yangi uskunalar ulushini qamrab oladi. [10] [18]

Ikkinchi qadamda turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlar chiziqli min-maks usulida qiyoslanadigan shkalaga keltiriladi. Rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar uchun: [17]

$$\tilde{x}_{ij} = (x_{ij} - x_{j,min}) / (x_{j,max} - x_{j,min}), \quad (1)$$

destimulyator ko'rsatkichlar uchun esa:

$$\tilde{x}_{ij} = (x_{j,max} - x_{ij}) / (x_{j,max} - x_{j,min}), \quad (2)$$

bu yerda: $x_{ij}$ — i-korxonaning j-ko'rsatkichi; $x_{j,min}$ va $x_{j,max}$ — tanlanma bo'yicha (yoki normativ etalon sifatida belgilangan) minimal va maksimal qiymatlar.

Uchinchi qadamda blok sub-indekslari vaznli yig'indi sifatida hisoblanadi:

$$S_k = \Sigma\, v_{kj} \cdot \tilde{x}_{kj}, \quad \Sigma\, v_{kj} = 1, \quad (3)$$

bu yerda $S_k$ — k-blok sub-indeksi (k = 1...6), $v_{kj}$ — blok ichidagi j-ko'rsatkichning vazni.

To'rtinchi qadamda integral indeks shakllantiriladi: [17]

$$I(SANOAT) = \Sigma\, w_k \cdot S_k, \quad \Sigma\, w_k = 1, \quad 0 \le I \le 1. \quad (4)$$

Bloklarning **wk** vaznlari ekspert so'rovi natijalari asosida ierarxiyalarni tahlil qilish usuli yordamida aniqlanadi; ekspertlar tarkibiga ilmiy jamoatchilik vakillari, hududiy boshqaruv xodimlari va korxona rahbarlari jalb etiladi. Vaznlarning ishonchliligi sharti sifatida juftlik taqqoslashlar matritsasining muvofiqlik nisbati 0,10 dan past bo'lishi talab qilinadi. Operatsion samaradorlik va moliyaviy barqarorlik bloklariga nisbatan yuqoriroq vazn berilishi ularning mexanizm natijaviyligini bevosita aks ettirishi bilan izohlanadi. [16]

Beshinchi qadamda korxonalar integral indeks qiymati bo'yicha to'rt guruhga tasniflanadi va har bir guruh uchun tabaqalashtirilgan boshqaruv qarori belgilanadi (3-jadval). Tasniflashning boshqaruv mazmuni shundaki, u qo'llab-quvvatlash vositalarini korxonaning holatiga moslashtiradi: yetakchi korxonaga ekspansiya vositalari, barqaror korxonaga nuqtaviy modernizatsiya, beqaror korxonaga restrukturizatsiya paketi, inqirozli korxonaga esa sanatsiya yoki qayta profillash bo'yicha qaror taklif etiladi (3-jadval). [17]

3-jadval

Korxonalarni integral indeks bo'yicha tasniflash shkalasi va boshqaruv qarorlari[3] [17]

| I(SANOAT) qiymati | Guruh | Mexanizm holati | Boshqaruv qarori yo'nalishi |
|---|---|---|---|
| 0,75 < I ≤ 1,00 | A — yetakchi | Yuqori samarali | Eksport ekspansiyasi, «drayver» maqomi, klaster yadrosi funksiyasi |
| 0,50 < I ≤ 0,75 | B — barqaror | Ayrim bloklarda zaxiralar mavjud | Zaif bloklarni nuqtaviy modernizatsiya qilish |
| 0,25 < I ≤ 0,50 | C — beqaror | Qisman ishlaydi | Restrukturizatsiya, boshqaruvni yangilash, sanoat zonasiga jalb etish |
| 0 ≤ I ≤ 0,25 | D — inqirozli | Samarasiz | Sanatsiya, qayta profillash yoki tugatish to'g'risida qaror |

3 Manba: muallif ishlanmasi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Uslubiyotning aprobatsiyasi viloyatning turli tarmoqlariga mansub 20–30 ta sanoat korxonasi ma'lumotlarida amalga oshiriladi. Hisob-kitob natijasida korxonalar A/B/C/D guruhlariga ajratiladi va har bir guruh uchun rivojlanish «yo'l xaritasi» shakllantiriladi. Uslubiyotning ilmiy qiymati tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tushunchasini o'lchanadigan kategoriyaga aylantirishida, amaliy qiymati esa hududiy boshqaruv organlari uchun korxonalarni davlat dasturlariga (imtiyozli kreditlash, subsidiyalash, zona rezidentligi) saralashning obyektiv vositasini, korxona rahbariyati uchun esa zaif bloklarni aniqlovchi o'z-o'zini diagnostika vositasini yaratishida namoyon bo'ladi.

Institutsional va iqtisodiy vositalarning tizimlashtirilgan majmui hamda «SANOAT» (6S) uslubiyoti hududiy sanoat rivoji samaradorligini oshirishning yaxlit boshqaruv mexanizmini tashkil etadi: makrodarajadagi vositalar hudud tipiga qarab yo'naltiriladi, mikrodarajadagi baholash esa har bir korxona uchun aniq qaror yo'nalishini belgilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-8050769
3. O'zbekiston Respublikasining 14.07.2021-yildagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5511879
4. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020-yildagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-son Qonuni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-4737511
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Xodiyev B.Yu. va boshq. Milliy iqtisodiyot va sanoat rivojlanishi masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Raximov A. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish. – Toshkent: Universitet, 2018.
8. Yusupov A.T., Akhmedov T.M., Tuxliyev N. va boshq. O'zbekiston hududlarida sanoat salohiyatini oshirish va modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent, 2023.
9. Nizomov A.B., Yavmutov D.Sh., Kosimova H.J. Buxoro viloyati sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlari: monografiya. – Buxoro, 2024.
10. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki. – Moskva: GU VShE, 2004.
11. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
12. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
13. Waterman R.H., Peters T.J., Phillips J.R. Structure Is Not Organization // Business Horizons. – 1980. – Vol. 23, No. 3. – P. 14–26.
14. EFQM. The EFQM Model. – Brussels: European Foundation for Quality Management, 2019.
15. Saaty T.L., Vargas L.G. Models, Methods, Concepts and Applications of the Analytic Hierarchy Process. – 2nd ed. – New York: Springer, 2012.
16. OECD, JRC – European Commission. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008.
17. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz